

20-Iyun, 2025-yil

**MA’NODOSH SO’ZLAR VA UNING USLUBIYATI MAVZUSINI INTERFAOL
USULLARDA O‘QITISH**

Vafoqulova Go’zal Ochilovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o’qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada ma’nodosh so’zlar (sinonim) va uning uslubiyati mavzusini interfaol usullarda o‘qitish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Sinonim, lug’aviy sinonim, garmmatik sinonim, iboralar sinonimligi, sinonimik qator, sinonimlar uyasi.

Tilimizda bir ma’noni bir necha so‘zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq* singari so‘zlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi-tilshunos*, *dardchil-dardkash*, *o’rinsiz-beo’rin*, *hafsal-a-hafsalali* kabi qo’shimchalar yordamida bir ma’noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.


Bir umumiy ma’noni ifodalovchi so‘z yoki qo’shimchalarga sinonimlar deyiladi. O‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘z va qo’shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.

So‘z maqomidagi sinonimlar lug’aviy (leksik) sinonimlar, qo’shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi.

Lug’aviy sinonimlar garchand bir umumiy ma’noni bildirsa ham, lekin ularning ma’no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma’lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so‘zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so‘zlardan birini tanlaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar qatorida *yuz* so‘zidan chap tomonagi to‘rtta so‘zda (*oraz*, *uzor*, *ruxsor*, *chehra*) ijobiy baho va uchtasida (*oraz*, *uzor*, *ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo‘lsa, o‘ng tomonidan beshta so‘zda (*bet*, *aft*, *bashara*, *nusxa*, *turq*) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga* nisbatan *aftda* salbiy baho kuchliroq, turqda esa hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu beshta so‘zda salbiy baho kuchayib boradi).

Har qanday uslubiy xoslanish va so‘zlovchining bahosidan xoli bo‘lgan sinonimlar qatori a’zosi dominanta (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko‘ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida yuz dominanta sanaladi.

20-Iyun, 2025-yil




Izoh: Shundan so'ng o'qituvchi guruh o'quvchilarining sonidan kelib chiqib ularni guruhlarga ajratadi va ularga alohida nom beradi. Guruhlar shakllangach, ularga birin ketin topshiriqlar beriladi va guruh to'plagan natijalar o'qituvchi tomonidan hisoblab boriladi.

1-topshiriq. „Toifalash jadvali“ni to'ldiring.

Ot sinonimlar	Sifat sinonimlar	Fe'l sinonimlar	Ravish sinonimlar
Sovg'a, ...	Chiroyli, ...	Kulmoq, ...	Ko'p, ...
Do'st, ...	Katta, ...	Ko'rmoq, ...	Asta, ...
Vaqt, ...	Xafa, ...	Gapirmoq, ...	To'satdan, ...

2-topshiriq. „Baliq skeleti“ni sinonim so'zlar bilan to'ldiring.



48-mashq. Quyida berilgan so'zlarni ikki guruhga ajratib ko'chiring:

1. Sinonimlar. 2. Antonimlar.

20-Iyun, 2025-yil

Katta-kichik, taom-ovqat, yaxshi-yomon, qisqa-uzun, yuz-chehra, xafa-xursand, qorong‘i-yorug‘, botir-qo‘rmas, keksa-mo‘ysafid, kambag‘al-bechora, urush-tinchlik, istamoq-qidirmoq, issiq-sovuq, halol-harom, tovush-ovoz, mehnatkash-ishchan, falak-osmon, tirik-o‘lik, kiyim-libos, kun-tun, pishiq-xom, bosh-kalla, halak-halok, so‘zladi-gapirdi, xat-xabar.

49-mashq. Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzib yozing.

Ozod, rost, soqchi, mashaqqat, g‘amgin, tanti, ittifoq, ayovsiz, asil, va’dalashmoq, vaqt, dang‘illama, yorug‘, istamoq, ixlosmand.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

2. B.Mengliyev, O‘.Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma – T., 2017;
3. A.Nurmonov, G.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (AL uchun) - T.
“O‘qituvchi” – 2015;
4. G‘.Abdurahmonov, S.Mamajonov. “Ona tili va adabiyot” – T., 2017.